


**O'zbekiston Respublikasi**  
**Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi**

**60730300 – Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab  
chiqarish bakalavriat ta'lim yo'nalishining  
malaka talablari**

**Toshkent 2023 yil**



**ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:**

- Jizzax politexnika instituti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil «\_\_»  
\_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

**JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta‘lim davlat ta‘lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasiga va Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining kasbiy standartlariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

T/r		bet
1.	60730300 – <i>Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi .....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1.	60730300 – <i>Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talabining qo'llanishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	60730300 – <i>Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	60730300 – <i>Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	60730300 – <i>Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari.....	4
1.2.3.	60730300 – <i>Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	60730300 – <i>Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	60730300 – <i>Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	6
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	6
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	7
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarini egallashni taminlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	7
2.3.1	Kvalifikatsiya.....	7
2.3.2	60730300 – <i>Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi fanlar mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar.....///.....	8
2.3.3	60730300 – <i>Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi fanlarni quyidagicha klassifikatsiyalash (tasniflash) mumkin.....	8
	Bibliografik ma'lumotlar.....	9
	Kelishuv varag'i .....	10

## **1. 60730700 – Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi**

**60730700 – Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi.**

#### **1.1.1. 60730700 – Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanishi.**

Malaka talabi 60730700 – *Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarning asosiy foydalanuvchilari:**

– mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

– ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

– bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

– ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

– oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

– oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

– kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

– oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### **1.2. 60730700 – Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

#### **1.2.1. 60730700 – Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.**

**60730700 – Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish** – “Arxitektura va qurilish” ta'lim sohasiga oid yo'nalish bo'lib, u qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish, takomillashtirish, tayyorlash, standartlash, tadqiq qilish, saqlashga yo'naltirilgan inson faoliyati vositalari, usullari bilan bog'liq kompleks masalalar bilan bog'liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

#### **1.2.2. 60730700 – Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining ob'ektlari:**

- qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish jarayonlari;

- qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini tayyorlashda qo'llaniladigan xom ashyo va materiallar tahlili;

- amalda mavjud bo'lgan qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini takomillashtirish va yangilarini yaratish;

-qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish texnologiyalari va jihozlaridan foydalanish jarayonlari;

-qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish jarayonida sifatini nazorat etish jaryonlari;

- energiya samarali va innovatsion qurilish materiallari va buyumlarini ishlab chiqarish jarayonlari.

60730700 – *Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan keyin, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi. Bakalavriatning kasb ta'limi yo'nalishlari bundan mustasno.

### **1.2.3. 60730700 – *Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- tashkiliy–boshqaruv;
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish;
- ilmiy–tadqiqot faoliyati;
- loyiha–konstruktorlik faoliyati.

### **1.2.4. 60730700 – *Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.**

60730700 – *Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

#### **Tashkiliy–boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:**

- ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish;
- ishlab chiqarish jarayonlari va resurslaridan foydalanishni rejalashtirish, favqulodda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish;
- zamonaviy axborot texnologiyalardan qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarishda foydalanish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligiga rioya qilish;
- kasbga oid muammolar va muhandislik-konstruktorlik echimlarini amaliyotga tadbiq qilish;
- bajarilayotgan ish rejasini tuzish va bu ishni nazorat qilish, ishni bajarish uchun zarur bo'lgan resurslarni rejalashtirish, o'z ishining natijalarini baholash;
- ishlab chiqarish jarayonlarining atrof–muhitni va mehnat xavfsizligini nazorat qilish tizimi talablariga mosligini monitoring qilish;
- xom ashyo, yordamchi materiallar va mahsulotlarning sifatini nazorat qilish;
- ishlab chiqarishni tashkil etish va takomillashtirish bo'yicha texnologik echimlarni ishlab chiqish;
- amaldagi texnologik asbob uskunalarning ishlashini ta'minlash, ularni yaroqli holatda ushlab turish;
- ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarni sifatini nazorat qilish;
- qurilish materiallaridan foydalanish sohasida namunaviy texnologik jarayonlarini ishlab chiqish va ularni amalda qo'llash;
- qurilish materiallari va konstruksiyalaridan foydalanish jarayonlarida texnologik intizomga rioya qilish;
- innovatsion texnologiyalarni va yangi qurilish materiallarini qo'llash;
- kasbiy etika kodeksiga rioya qilish;

- qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini foydalanishga topshirish qoidalarini bilish;
- qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini buyurtmachining talabiga binoan sinovlardan o'tkazish.

#### **Ilmiy–tadqiqot faoliyatida:**

- ilmiy–tadqiqot va loyiha institutlari va markazlarda qurilish materiallari va buyumlarini xossalari aniqlash bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;
- texnik vositalar, tizimlar, jarayonlar, qurilmalar, materiallar va yangi turdagi qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarining tarkibi va texnologiyasini amaliyotga tadbiq etish, konstruksiyalarni sinovdan o'tkazishda zarur bo'lgan tashkiliy ishlarda ishtirok etish;
- zamonaviy qurilish materiallari va buyumlarini ishlab chiqarishga bag'ishlangan mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o'rganish va tizimlashtirish;
- qurilish materiallari va buyumlarini ishlab chiqarishning zamonaviy texnologiyalari borasidagi muammoli mavzular bo'yicha texnikaga oid axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;
- internet tarmog'idan eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;
- ilmiy–tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;
- tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tatbiq etish.

#### **Loyiha-konstruktorlik faoliyatida:**

- xom ashyo va materiallarning tuzilishi, fizik-mexanik va kimyoviy xossalari aniqlash;
- mahsulotlarning texnik-ekspluatatsion ko'rsatkichlarini tekshirish;
- moddiy balans, ishlab chiqarish rejimlari va normalari taqqoslash;
- ishlab chiqarishning asosiy (texnologik) va yordamchi jarayonlarini tanlash;
- texnologik reglament asosida ishlab chiqarish jarayonlarini tanlash;
- xom ashyolarga ishlov berish va mahsulotlarni ishlab chiqarish loyihasini tuzish;
- loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;
- ishlab chiqiladigan loyihalar va texnik hujjatlarni, topshiriqlar, standartlar, me'yorlar, texnik shartlar va boshqa ijro hujjatlariga muvofiq kelishini ta'minlash.

## **2. 60730700 – Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

### **2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

## **2.2. Kasbiy kompetensiyalar:**

- me'yoriy huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatda foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish sohasidagi jarayonlarni tashkil etish va boshqarish;
- qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish korxonalarida texnolog, muhandis bo'lib ishlash, texnologik jarayonlarini bajarish;
- ishlab chiqarilgan qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarining sifatini nazorat qilish;
- qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish texnologiyasiga rioya qilinishini nazorat qilish;
- qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish texnik hujjatlarni (ishlarni bajarish grafiklari, yo'riqnomalar, rejalar, xom ashyo material va jihozlarga buyurtmalar) tuzish;
- ilmiy va amaliy faoliyatda avtomatlashtirilgan tizimlarning instrumental vositalari va muhitlarini rivojlantirish va ulardan foydalanish.

## **2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarini egallashni taminlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketlida kiritiladigan ma'jburiy va tanlov fanlarni o'zlashtirish, a'maliyotlarni o'tish hamda o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Ma'jburiy fanlar – bakalavriyat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvidan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita iqtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi malakaviy amaliyotlar o'tkaziladi:

1-bosqichda malakaviy amaliyot – O'quv-tanishuv amaliyot o'tilgan fanlar bo'yicha amaliy ko'nikmalarni egallashga qaratiladi;

2,3-bosqichlarda malakaviy amaliyot - ishlab chiqarishda (tegishli soha korxonasi, tashkilot va muassasalarida) umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlar bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

4-bosqichda malakaviy amaliyot - ishlab chiqarishda (tegishli soha korxonasi, tashkilot va muassasalarida) kasbiy ko'nikmalarni yanada mustahkamlash, kasbiy faoliyatga moslashish, bitiruv malakaviy ishni tayyorlash uchun ma'lumot to'plash va tizimlashtirishga qaratiladi;

Ta'lim yo'nalishlarining o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq malakaviy amaliyotlarning boshqa turlari ham qo'llanilishi mumkin.

## **2.4. Kvalifikatsiya: muhandis-texnolog, quruvchi**

**3. 60730700 – Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi fanlar mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar**

**3.1. 60730700 – Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish.**

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	5580	186
Tanlov fanlari	1020	34
Malakaviy amaliyot	450	15
Yakuniy davlat attestatsiyasi	150	5

Ilova

**60730700 – Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish) bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi**

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
<b>1.00</b>		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>5580</b>	<b>186</b>	
1.01	O'RT1204	O'zbek (rus) tili	120	4	2
1.02	DIN1104	Dinshunoslik	120	4	1
1.03	UK1109	Umumiy va noorganik kimyo	270	9	1,2
1.04	XT1108	Xorijiy til 1,2	240	8	1,2
1.05	FIZ1110	Fizika 1,2	300	10	1,2
1.06	OM1110	Oliy matematika 1,2	300	10	1,2
1.07	O'YET1204	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.08	TTAT1105	Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari	150	5	1
1.09	MKG1204	Muhandislik va kompyuter grafikasi	120	4	2
1.10	QMS1304	Qurilishda metrologiya va standartlashtirish va o'zaro al-mashinuvchanlik	120	4	4
1.11	SIM1704	Soha iqtisodiyoti va menejmenti	120	4	7
1.12	FAL1504	Falsafa	120	4	5
1.13	EKA1604	Ekologiya	120	4	6
1.14	XFX1804	Hayot faoliyati havfsizligi	120	4	8
1.15	MNM1312	Mexanika 1 (Nazariy mexanika va materiallar qarshiligi)	360	12	3,4
1.16	OFK1306	Organik va fizikaviy kimyo	180	6	3
1.17	QMB1308	Qurilish materiallari va buyumlari	240	8	3,4
1.18	BILA1410	Bino va inshootlarni loyihalash va konstruksiyalash	360	12	4,5,6
1.19	ZQMK1404	Zamonaviy qurilish materiallari va konstruksiyalari	120	4	4



1.20	BTT1508	Beton to'ldiruvchilari texnologiyasi	240	8	5,6
1.21	BM1508	Bog'lovchi moddalar	240	8	5,6
1.22	QITU1504	Qurilish industriyasining texnologik uskunalari	120	4	5
1.23	MG1608	Muhandislik geologiyasi	120	4	5
1.24	ITU1508	Issqlik texnik uskunalari	240	8	5,6
1.25	QMTJA1704	Qurilish materiallari texnologiyasida jarayon va apparatlar	120	4	7
1.26	BTBT1614	Beton va temir-beton texnologiyasi	420	14	6,7,8
1.27	KTQK1708	Korxonalarda tayyorlangan qurilish konstruksiyalari	240	8	7,8
1.28	PIIMT1708	Pardozlash va issqlik izolyasiya materiallari texnologiyasi	240	8	7,8
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlari</b>	<b>1020</b>	<b>34</b>	<b>3,4,5,7,8</b>
2.00		Tanlov fanlari (9 ta fan)	1020	34	
		<b>Jami</b>	<b>6600</b>	<b>220</b>	
		<b>Malakaviy amaliyot</b>	<b>450</b>	<b>15</b>	<b>2, 4, 6, 8</b>
		<b>Yakuniy davlat attestatsiyasi</b>	<b>150</b>	<b>5</b>	<b>8</b>
		<b>Jami</b>	<b>600</b>	<b>20</b>	
		<b>HAMMASI</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va o'quv dasturlari, profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv davri, qurilish materiallari, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriat o'quv jarayoni, mustaqil ta'lim, beton va temir-beton konstruksiyalari, qurilish materiallari, zamonaviy qurilish materiallari va buyumlari, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlar bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari  
hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Jizzax politexnika instituti

Rektor  A.K. Usmankulov

M.O'.



2023 yil « 4 » eyul

KELISHILGAN:

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni  
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor  Sh. Yakubov




2023 yil « \_\_\_\_\_ »  
M.O'.

Toshkent arxitektura-qurilish  
universiteti

Rektor  E. Kahya

2023 yil « \_\_\_\_\_ »  
M.O'.



“Uz sanoat qurilish materiallari”  
uyushmasi

Ilm-fan va innovatsiyalar bo'yicha  
uyushma raisi o'rinbosari

 A.A. Bahodirov

2023 yil « \_\_\_\_\_ »

M.O'.



Namangan muhandislik-qurilish  
instituti

Rektor  Sh.T. Ergashev

2023 yil « \_\_\_\_\_ »  
M.O'.



**Jizzax politexnika institutida ishlab chiqilgan**  
**60730700 – Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish ta'lim**  
**yo'nalishi bo'yicha malaka talablari va o'quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy**  
**ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasida**

**KELISHUV DALOLATNOMASI**

Toshkent sh.

“ ” \_\_\_\_\_ 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – “Uzsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi Ilm-fan va innovatsiyalar bo'yicha uyushma raisi o'rinbosari A.A.Bahodirov, Namangan muhandislik-qurilish instituti rektori Sh.T.Ergashev va Toshkent arxitektura-qurilish universiteti rektori prof. E.Kahya va Jizzax politexnika instituti rektori prof. A.K. Usmankulov birgalikda Jizzax politexnika institutida ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasini mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60730700 – Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish ta'lim yo'nalishi.

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-son, 2022 yil 8 noyabrdagi “Arxitektura-qurilish sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-416-son qarorida belgilangan vazifalar hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari xamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**“Uzsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi**  
**Ilm-fan va innovatsiyalar bo'yicha uyushma**  
**raisi o'rinbosari**

**A.A.Bahodirov**

**Toshkent arxitektura-qurilish**  
**universiteti rektori, professor**

**E.Kahya**

**Namangan muhandislik-qurilish**  
**Institute rektori**

**Sh.T.Ergashev**

**Jizzax politexnika**  
**institutini rektori**

**A.K. Usmankulov**

**Jizzax politexnika institutida ishlab chiqilgan 60730700 – Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrlar tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yiladigan talablar yangilangan malaka talablari va o'quv rejasiga**

**TAQRIZ**

"Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini ijro etish, ta'lim mazmunini tubdan isloh qilish, tayyorlanayotgan kadrlar sifatining respublikada amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar talablariga, shuningdek ta'lim, fan, texnika va texnologiyalar rivojlanishining ilg'or jahon darajasiga muvofiqligini ta'minlash bevosita malaka talablarining mazmuniga bog'liq.

60730700 – Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasini O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida", qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli hamda O'zR OTFIVning 2023 yil 9 iyundagi "Oliy ta'limning me'yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to'g'risida"gi 259-sonli buyrug'i, oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ huquqiy hujjatlarga hamda xorij tajribalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasini kredit-modul tizimi asosida shakllantirilgan va kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarga muvofiq, talabalar majburiy va tanlov fanlarini o'zlashtirishi, amaliyotlarni o'tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko'nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta'minlovchi mazmunda ishlab chiqilgan.

60730700 – Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasini xorij tajribasi asosida uyg'unlashtirilgan, ta'lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb-kor malakasi shakllanishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan, bakalavrlarning fanlarni o'zlashtirish jarayonida tajriba, ko'nikmalar hamda tasavvurga ega bo'lish, qo'yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilar to'g'ri ko'rsatilgan. Malaka talablari va o'quv rejasida fan va texnika oldida turgan dolzarb muammolarni o'rganish va ularni ijobiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, seminar mashg'ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma'lumotlarni tahlil qilishga keng o'rin berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda ta'limni demokratlashtirish, insonparvarlashtirish, globallashtirish sharoitida o'ziga xoslikni saqlash va jahon ta'lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo'yicha fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilgan. Fanlar uchun belgilangan vaqt byudjetining nazariy, amaliy, tajriba, mustaqil ishlar uchun taqsimoti bitiruvchining nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyotda muvaffaqiyat bilan qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda turdosh oliy ta'lim muassasalaining talab va takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 60730700 – Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasi oliy ta'lim o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o'z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtiradi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

**Toshkent arxitektura-qurilish  
universiteti rektori, professor**



**E.Kahya**

**Jizzax politexnika institutida ishlab chiqilgan 60730700 – Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrlar tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yiladigan talablar yangilangan malaka talablari va o'quv rejasiga**

**TA Q R I Z**

Jizzax politexnika institutida ishlab chiqilgan 60730700 – Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish ta'lim yo'nalishi malaka talablarini ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devonining 2018 yil 3 apreldagi 5002-sonli topshirig'i va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli qarori hamda 2019 yil 22 avgustdagi PQ-4422 "Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to'g'risida", 2020 yil 10 iyuldagi PQ-4779 "Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg'i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari bilan tasdiqlangan tamoyillarga amal qilingan.

Jizzax politexnika institutida ishlab chiqilgan 60730700 – Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasida xorij tajribasi asosida uyg'unlashtirilgan, ta'lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb-kor malakasi shakllanishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan, bakalavrlarning fanlarni o'zlashtirish jarayonida tajriba, ko'nikmalar hamda tasavvurga ega bo'lish, qo'yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilar to'g'ri ko'rsatilgan. Malaka talablari va o'quv rejasida fan oldida turgan dolzarb muammolarni o'rganish va ularni ijobiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, seminar mashg'ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma'lumotlarni tahlil qilishga keng o'rin berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda talabaning kelgusida faoliyat olib boradigan ob'ektlari misolida fan va texnikaning ilg'or yutuqlaridan foydalangan holda jahon ta'lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo'yicha fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib

chiqilgan. Fanlarni shakllantirishda ularning mazmuni jihatidan izchilligi ta'minlangan bo'lib, bugungi kun talabidan kelib chiqib yangi fanlar kiritilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda asosiy kadr iste'molchilari bo'lgan korxonalar va tashkilotlarning talab hamda takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda 60730700 – Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasi oliy ta'lim o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o'z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtiradi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

**“Uzsanoatqurilishmateriallari”  
uyushmasi ilm-fan va innovatsiyalar  
bo'yicha uyushma raisi o'rinbosari,  
t.f.d. professor**



**A.A.Bahodirov**